

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 117 (1178), 2024-yil 14-iyun, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TO‘RTINCHI AN‘ANAVIY SAMARQAND FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum ishtirokchilari!  
Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, “Ekologik tahdidlar: o‘zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusidagi inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi an‘anaviy Samarqand forumining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy qutlayman.

Yurtimizda ilk bor 2018-yilda o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi jahon amaliyotiga o‘ziga xos “Samarqand ruhi”ni olib kirdi desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish yaxshi an‘ana tusini oldi.

Anjumanda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi, shuningdek, taniqli xorijiy davlat va jamoat arboblari, inson huquqlari sohasidagi yetakchi ekspertlar ishtirok etayotgani ayniqsa ahamiyatlidir.

Hurmatli anjumana qatnashchilari!  
Yaxshi ma‘lumki, global iqlim o‘zgarishi oqibatida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat yuzaga keldi. Ichimlik suvi taqchilligi, atrof-muhit ifloslanishi,

tuproq yemirilishi, kuchli chang va qum bo‘ronlari, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Barcha qit‘alarda va mamlakatlarda bu jarayonlarning salbiy ta‘sirini yanada kuchaytib bormoqda. Ayniqsa, havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p bo‘lgan va Orol fojiasini boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida buning oqibatlari yaqqol sezilmoqda.

Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi eng asosiy to‘siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog‘liq muammolar ko‘paymoqda, insonning sog‘liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy ziyat chekmoqda.

Albatta, iqlim o‘zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni keskin kamaytirish uchun jahon mamlakatlari birgalikda samarali choralar ko‘rish kerak. Kelajak avlodlar taqdiri uchun barchamiz ulkan mas‘uliyatni o‘z zimmamizga oladigan vaqt keldi.

Parij bitimida ta‘kidlanganidek, iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar ko‘rilayotganida, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilishi, rag‘batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e‘tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim.

Hurmatli mehmonlar!

Yangi O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi muammolari bilan kurashish barqaror rivojlanishni ta‘minlashning eng muhim omiliga aylandi. Biz imkon qadar bunday jarayonlarning oldini olish va ularning salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha zarur choralar ko‘rmuqdamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi alohida bobda mustahkamlangan. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatlarini belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o‘tish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2030-yilga borib mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazishni rejalashtirganimiz. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida O‘zbekistonda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo etdik.

Shuni alohida ta‘kidlashni istardimki, bizning sa‘y-harakatlarimizni jahon hamjamiyati keng qo‘llab-quvvatlamogda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Bosh Assambleyasi tomonidan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birlamlikni mustahkamlash” kabi muhim rezolyutsiyalar bir ovozdan qabul qilindi.

Hech shubhasiz, insoniyat to‘qnash kelayotgan iqlim bilan bog‘liq keskin muammolar oqibatlarini yumshatish inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Shu bois, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaysizlar, deb ishonaman.

Siz, azizlar Forum davomida global miqyosda ekologik vaziyat barqarorligini saqlash, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiladigan yangi amaliy taktiklarni ishlab chiqasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, Forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti**

## KOREYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONGA KELDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol rafiqasi bilan birga 13-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.**

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Shundan so‘ng Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asosida Janubiy Koreya delegatsiyasi vakillariga bu yerda aks ettirilgan siymalar va tarixiy voqealar mazmuni haqida batafsil ma‘lumot berildi.

Uch ming yildan ziyod davr — ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e‘tibor qaratgan kishi mana shu zalvorli o‘tmishning badiiy ifodasiga guvoh bo‘ladi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrifi doirasida bu yerdagi monumentga gul qo‘yish an‘anaga aylangan.

Delegatsiya a‘zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e‘tibor qaratdi. Tinchlik, erkinlik, ezgulik timsoli bo‘lgan Humo qushi tasviri majmuaning bamosoli gultojiday ko‘rinishi e‘tirof etildi.

So‘ng Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol Toshkent shahridagi “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazida bo‘ldi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi va Koreya axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish agentligining qo‘llab-quvvatlovi bilan tashkil etilgan “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazi Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribasi asosida o‘zbekistonlik yosh

tadbirkorlarga o‘z biznes loyihalarini amalga oshirishlari uchun har tomonlama ko‘mak berishga mo‘ljallangan.

Mazkur markaz startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish va imkoniyatlarni kuchaytirish orqali O‘zbekiston startap ekotizimini jonlantirish, tajribalar bilan o‘rtoqlashish, Koreya startaplarning Markaziy Osiyoga kirishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyo murakkab global inqirozga yuz tutayotgan davrda o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va bu yo‘lda samarali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mamlakatlar taraqqiyoti uchun muhim sanaladi.

Prezident Yun Sok Yol markazda O‘zbekiston yoshlari bilan samimiy suhbatlashdi. Markazning faxriy mehmonlar kitobiga o‘zining samimiy dil so‘zlarini yozib qoldirdi.

Koreya Respublikasi Prezidenti mamlakatimizda istiqomat qilayotgan bir guruh koreys diasporasi vakillari bilan ham uchrashdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 14-iyun kuni bo‘lib o‘tadi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston — Koreya do‘stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Sammit yakunlari bo‘yicha bir qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolanishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, ikki mamlakat Prezidentlarining qo‘shma biznes-forumda ishtirok etishi kutilmoqda.

Prezident Yun Sok Yol mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tanishish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyuradi.

O‘ZA

### Samarqand forumi

## O‘ZGARAYOTGAN DUNYODA INSON HUQUQLARI ISTIQBOLI VA BARQAROR YECHIMLAR



Samarqand shahri shu kunlarda yana dunyo nigohida. Qadimiy va hamisha navqiron kentda inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi bo‘lib o‘tmoqda. Bu galgi an‘anaviy xalqaro anjuman “Ekologik tahdidlar: o‘zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusiga bag‘ishlandi.

[Davomi 3-betda](#)



vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otib, ulug‘vor maqsadlar sari chorlaydi

[6](#)

## YUQORI DARAJADAGI UCHRASHUVLAR IKKI XALQ FAROVONLIGINI TA‘MINLASHGA KATTA HISSA QO‘SHADI



**O‘zbekistonning Koreya Respublikasidagi elchisi Vitaliy Fen Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning mamlakatimizga davlat tashrifi munosabati bilan “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari haqidagi fikrlarini bayon etdi.**

— Keyingi yillarda O‘zbekiston — Koreya Respublikasi aloqalari ikki davlat turli vazirlik va idoralari o‘rtasidagi doimiy hamda sermahsul muloqot natijasida faollashib bormoqda.

O‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon davlat rahbarlari darajasida 18-marta uchrashuv va muzokaralar o‘tkazildi. E‘tiborlisi, 2019-yil aprel oyida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar

mutlaqo yangi — alohida Strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning ilk uchrashuvi 2023-yil sentabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi doirasida o‘tkazilgan edi.

[Davomi 2-betda](#)



# YUQORI DARAJADAGI UCHRASHUVLAR IKKI XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASHGA KATTA HISSA QO'SHADI

## Boshlanishi 1-betda

Muloqot chog'ida O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi alohida Strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Azaldan yaqin do'stlik rishtalariga, xalqlarimizning mentaliteti, an'ana va qadriyatlarini o'xshashligiga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi siyosiy munosabatlar alohida Strategik sheriklik an'analarga mos tarzda o'zaro ishonch, manfaatlarini hurmat qilish, xalqaro maydonda bir-birini keng qo'llab-quvvatlash tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Global va mintaqaviy ahamiyatga molik barcha dolzarb masalalar bo'yicha tomonlarning nuqtaiy nazarini va yondashuvlarini o'xshash va yaqindir.

O'zbekiston rasmiy Seulning Koreya yarim orolida global xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tinchliksevar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi.

2023-yil sentabr oyida ikki davlat tashqi ishlar vazirligining o'rtasida o'zaro hamkorlikning yangi shakli — vazirlar darajasidagi Strategik muloqot yo'lga qo'yildi. Bu 32-yillik diplomatik munosabatlarda erishilgan yuksak ishonchning yana bir dalili bo'ldi.

Qayd etish kerak, keyingi yillarda o'zaro savdo va investitsiya ko'rsatkichlari barqaror oshib bormoqda. Janubiy Koreyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalari hajmi 7 milliard dollardan oshdi. Mamlakatimizda koreyalik hamkorlar bilan birgalikda 726 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda, ulardan 32 tasi 2024-yilda tashkil etildi.

Ushbu korxonalarining faoliyati, asosan, savdo, yengil sanoat, tog'-kon, kimyo, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, uy-joy kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, turizm, xizmatlar va boshqa qator sohalarga ixtisoslashgan.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Ko-



reya Eksimbanki va uning fondlari bilan ko'p yillar davomida samarali hamkorlik qilinmoqda, ular bilan birgalikdagi loyihalarning



umumiy portfeli 3 milliard dollardan ziyodni tashkil etadi.

Ikki mamlakat hamkorligida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan texnologik va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni jadallashirish, infratuzilma, "yashil" energe-

tika, raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va boshqa yo'nalishlardagi qo'shma loyihalarni ilgari surish amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab olingan.

Koreya Respublikasining yetakchi kompaniyalari tomonidan yurtimiz iqtisodiyotining turli sohalarida yuzlab ustuvor investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga yaratilgan qulay sharoitlar natijasida "Samsung Group", "KIA Motors", "LG Corporation", "POSCO Group", "Hyundai Motor Group", "Lotte Group" kabi yirik koreys kompaniyalarining yurtimizga ishonchi ortib bormoqda.

Bu, o'z navbatida, Janubiy Koreya xususiy korxonalarining davlat kafolatlarisiz to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalari miqdori ortib borishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda hamkorlikning yangi yo'nalishi sifatida o'zaro tashqi savdo aylan-



Ikki mamlakat munosabatlarida parlamentlararo aloqalar ham muhim o'rin tutadi. O'tgan davr mobaynida parlamentlarimiz tajribasini o'zaro o'rganish, birgalikda xalqaro konferensiyalar o'tkazish, muntazam ravishda delegatsiyalar almashinuvini yo'lga qo'yish borasida amaliy ishlar qilindi.

a'zo bo'lishida ham yaqindan ko'maklashib kelmoqda.

Ikki mamlakat munosabatlarida parlamentlararo aloqalar ham muhim o'rin tutadi. O'tgan davr mobaynida parlamentlarimiz tajribasini o'zaro o'rganish, birgalikda xalqaro konferensiyalar o'tkazish, muntazam ravishda delegatsiyalar almashinuvini yo'lga qo'yish borasida amaliy ishlar qilindi.

O'tgan yili ikki mamlakat parlamentlari rahbarlari "Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi hamkorlik forumi" shaklidagi parlamentlararo birinchi yig'ilishi doirasida uchrashgan edi. Ayni paytda Koreya Respublikasi tajribasi asosida "KOICA" xalqaro hamkorlik agentligi ko'magi bilan O'zbekistonda

"Elektron parlament" tizimini joriy qilish borasida ishlar davom ettirilmoqda.

Koreya Respublikasi bilan mehnat migratsiyasi sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 2007-yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik doirasida Bandlikka ruxsat berish tizimi bo'yicha 40 mingga yaqin O'zbekiston fuqarosi Janubiy Koreyaga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun yuborildi.

2018-yil sentabr oyida Koreya Respublikasining Kvanju shahrida O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonasi ochildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada Bandlikka rux-

sat berish tizimi bo'yicha 15 mingga yaqin o'zbekistonlik mehnat qilmoqda. O'tgan yili Koreya Respublikasi hukumati tomonidan O'zbekiston uchun 5 ming atrofida ish o'rinlariga kvota ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 12 mingga yetkazildi. Janubiy Koreya tomoni bilan olib borilgan muzokaralar natijasida yil oxirigacha bu ko'rsatkichni 15 mingga yetkazish rejalashtirilgan.

Do'stona munosabatlarni rivojlantirishda mamlakatlarimiz xalqlari mentalitetining yaqinligi hamda O'zbekistondagi yirik koreys diasporasi muhim rol o'ynaydi.

Toshkent shahrida ochilgan Koreys madaniyati va san'ati uyi esa xalqlarimizning mustahkam do'stligi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar yuqori bosqichga chiqqanining yana bir yorqin tasdiqi'idir.

Shu bilan birga, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida koreys tilida darslar olib borilmoqda.

Hududlararo yaqin aloqalar o'rnatish doirasida, "Toshkent — Seul", "Farg'ona — Incheon", "Samarqand — Kyondju", "Buxoro — Tegu" va boshqa bir qator shaharlar o'rtasida o'zaro hamkorlik kundan kun rivojlanib bormoqda.

Muxtasar aytganda, o'tgan davr mobaynida O'zbekiston hamda Koreya Respublikasi o'rtasidagi samarali hamkorlik alohida Strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Shu nuqtaiy nazardan, Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yoning mamlakatimizga davlat tashrif ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi va xalqlarimiz farovonligi yo'lida hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish hamda kengaytirishga katta turki beradi.

Tashrif chog'ida davlat rahbarlari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim qarorlarni qabul qiladilar va qator ikki tomonlama hujjatlarni imzoladilar. Mamlakatlar yetakchilari, shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikni turli sohalarda rivojlantirish yuzasidan ham fikr almashadilar.

"Dunyo" AA  
Seul

## 15-iyun — SHHT tashkil topgan kun



# ISHONCH, HAMJIHATLIK, BIRGALIKDA RIVOJLANISH ISTAGI

## Tashkilot doirasida samarali faoliyat asosi

"Xalqaro hamkorlikning universal prinsip va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotgani bugungi kun haqiqatidir. Buning asosiy sabablaridan biri global darajada davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchning chuqur tanazzulga yuz tutayotgani bilan bog'liq", degan edi davlatimiz rahbari jahondagi bugungi vaziyatga baho berib.



### Qobiljon SOBIROV, O'zbekistonda SHHT Xalq diplomatiyasi markazi direktori

Ishonch iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi va jamiyatni rivojlantiruvchi kuch. Bugun jamiyatni, barcha munosabatlarni yagona ijtimoiy birlamlikka qiyoslash mumkin. Uning asosiy tarkibiy qismi ishonchdir. Agar insonlar o'z munosabatlarini, shaxsiyatlarini bir-biri bilan bog'lama, ishonch bo'lmas ekan,

birdamlikka putur yetadi. Oqibatda turli nizolar paydo bo'ladi, tajovuzkorlik ortadi, salbiy oqibatlar kelib chiqadi. Shunday ekan, ishonch jamiyatning boshqa barcha jihatlari bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy shartdir.

Globallashuv va axborot makoni jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda xalqaro gumanitar hamkorlikning roli yanada ortmoqda. Samarali gumanitar hamkorlik orqali turli xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik, millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish xalq diplomatiyasi faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xalq diplomatiyasi nima va uning davlat diplomatiyasidan farqi qanday? "Xalq diplomatiyasi" atamasi ilk bor 1965-yilda amerikalik diplomat Edmund Gallion tomonidan muomalaga kiritilgan va turli jamoat birlashmalari, jam'armalar va nodavlat tashkilotlarning xalqaro munosabatlardagi ishtirokini kengaytirish orqali davlat maqsadlariga erishish yoki o'z qadriyatlarini xalqaro jamjamiyatda targ'ib qilish usuli sifatida belgilangan.

Xalq diplomatiyasi rolini kuchaytirish zarurati tan olingan bo'lsa-da, siyosatchilar va ekspertlarning ushbu hodisa haqidagi fikrlari, qarashlari, pozitsiyalari turlicha. Umuman, bu yerda ikkita nuqtaiy nazarni ajratish mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar xalq diplomatiyasini xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etish shakli deb hisoblash, boshqalari uni davlat tashqi siyosatidagi ko'nikmalar tizimi deb biladi.



An'anaviy ma'noda diplomatiya hukumatlar o'rtasidagi aloqa shaklidir. Xalq diplomatiyasi — boshqa mamlakatlar xalqlari bilan bevosita aloqalarni o'rnatish tizimi.

Xalq diplomatiyasi faoliyati sohasiga jamoat tashkilotlari va birlashmalari, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan aloqalar va madaniy, ilmiy hamda ta'lim dasturlarini amalga oshirishdagi hamkorlik kiradi. So'ngi yillarda ushbu hamkorlik mamlakatlar xalqaro aloqalarini kengaytirishning noyob vositasiga aylanib bormoqda.

Bunday hamkorlik nafaqat davlat tuzilmalari, balki xalqlarning o'zi, ularning faol vakillari tomonidan ham amalga oshiriladi. Unda oddiy insonlar turli mamlakatlar fuqarolari bilan do'stona munosabatlar va hamkorlik o'rnatish, mustahkamlash, o'z his-tuyg'ularini yanada kengroq hamda chuquroq ifoda eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalq diplomatiyasida jamoat tashkilotlari sa'y-harakatlari juda muhimdir. Chunki bu yo'nalish xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlashning eng yaxshi usuli bo'lgani uchun u jamoat tashkilotlari va oddiy insonlar ishtirokida rivojlanadi. Natijada xalqaro iqtisodiy munosabatlar asta-sekin etno-madaniy, intellektual-ma'rifiy, axloqiy, diniy-siyosiy tus ola boshlaydi.

Bugungi kunda faol tashqi siyosat yuritayotgan O'zbekiston uchun xalqaro munosabatlarda xalq diplomatiyasi usul va vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, avvalo, ushbu sohani ilmiy jihatdan o'rganish va uni ijtimoiy-siyosiy hayotimizga joriy etish zarurati tug'iladi. Tashabbuskorligi va pragmatizmi bilan ajralib turadigan Shanxay hamkorlik tashkiloti — SHHTga asos solingan davrdan boshlab hozirgi kungacha a'zo davlatlarning asosiy maqsadi

uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga qaratilgan. So'ngi 23 yil ichida SHHT mintaqasi rivojlanishidagi erishilgan yutuqlar ko'rsatkichi, a'zo davlatlar tomonidan birgalikda ilgari surilgan o'zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuvlar, turli sivilizatsiyalarga hurmat va umumiy rivojlanish istagi kabi qadriyatlar vaqt sinovidan o'tdi. Eng muhimi, jiddiy xalqaro o'zgarishlarga dosh berib, o'zaro ishonch manbai, hayotiylik va tashkilotni rivojlantirish uchun bitmas-tuganmas harakatlantiruvchi kuchga aylandi.

SHHT Bosh kotibi Chjan Min ta'kidlaganidek, "Biz mintaqani avvalgidan ko'ra xavfsizroq qilish, xalqlarimiz yanada yaxshi yashashi va hamkorligimizni bundanda chuquroq, kengroq va mustahkam qilish uchun harakat qilishimiz kerak".

SHHT oilasiga a'zo davlatlar birgalikda otuv yashashi uchun kerakli sharoit va qulayliklarga ega. Ushbu qulaylik darajasi, asosan, ikkita omilga bog'liq. Birinchisi — "Shanxay ruhi". Bu tamoyil, aslida, multilateralizm g'oyasini targ'ib etadi, davlatlararo munosabatlarni tenglik, o'zaro hurmat, bir-birining manfaatlari va muammolarini hisobga olish, ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillarini asosida qurish zarurligini ilgari suradi.

Ikkinchisi — SHHT xavfsizlik konsepsiyasi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar uzoq muddatli hamkorlikka asoslangan holda teng, umumiy, keng qamrovli va barqaror xavfsizlik konsepsiyasini shakllantirdi.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosat yo'nalishi uning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, jumladan, SHHTda o'zaro munosabatlari faollashtirib, o'z mavqei mustahkamlab borayotganida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston mazkur tashkilotni institutsional mustahkamlash va muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan konstruktiv taklif hamda tashabbuslarni tizimli ravishda ilgari

surmoqda, shuningdek, uning rivojlanish strategiyasini belgilashda faol ishtirok etmoqda. Prezidentimiz a'zo davlatlar ajdodlarimiz tomonidan belgilab berilgan yaxshi qo'shnichilik an'analarni qadrlashi, asrab-avaylashi, mustahkamlashi va kelajak avlodlarga yetkazishi muhimligini bir necha bor ta'kidlagan. Ikki va ko'p tomonlama munosabatlarda o'zaro ishonchni chuqurlashtirish xalqaro hamkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy kafolati ekanini qayd etilgan.

Davlatimiz rahbari 2017-yilda SHHTning Ostona sammitidagi nutqida tuzilma davlatlari va xalqlari o'rtasida o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va do'stlikni mustahkamlashni davom ettirish zarurligiga urg'u berib, SHHT makonida xalq diplomatiyasining doimiy institutlarini tashkili etishni taklif qilgan edi.

Prezidentimizning bu masalaga e'tibor qaratisi bejiz emas. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni rivojlantirishga bo'lgan talab quyidagi omillarga bog'liq.

Birinchidan, xalq diplomatiyasi vositalaridan foydalanish mintaqa davlatlarining barqaror va izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, SHHT mamlakatlarining o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik, millatlararo totuvlik ruhini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarini mintaqadagi integratsiya jarayonlariga faol jalb etish hamkorlik salohiyatini boyitadi va samarali aloqalar uchun yangi yo'nalishlarni ochadi.

Uchinchidan, SHHT doirasidagi xalq diplomatiyasi dunyo mamlakatlari mentalitetini anglash uchun asos bo'ladi. Yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, SHHT makonida yashovchi xalqlar manfaatlarini yo'lida madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish, madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish, turli xalqlar tabirlar doirasida mintaqaning madaniy va tabiiy merosini o'rganish, xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalq diplomatiyasi zamirida oliy qadriyatlar — tinchlik, xavfsizlik, ishonch, o'zaro manfaat, tenglik, boshqa xalqlar bilan yaxshi qo'shnichilik, adolat va birgalikda rivojlanish istagi turadi.

Demak, bugungi kunda bu jarayon har qachongidan ham talabchan bo'lishi, murakkab xalqaro vaziyat fonida turli xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash orqali umumiy muammolarni hal etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi, nodavlat tashkilotlar xalq diplomatiyasining harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi kerak. Shunday bo'lsa ham, xalqlar darajasida yaqinlashish uchun chinakam platformaga aylanadi.

Samarqand forumi

# O'ZGARAYOTGAN DUNYODA INSON HUQUQLARI ISTIQBOLI VA BARQAROR YECHIMLAR



Boshlanishi 1-betda

Ochilish marosimida BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari Folker Tyurk hamda YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori Matteo Mekachchining videomurojaati namoyish etildi. Forum ochilishida, shuningdek, O'zbekiston adliya vaziri o'rinbosari Muzraf Ikramov, BMTning O'zbekistondagi doimiy muvofiqdoshuvchisi Sabina Mahl ishtirokchilarni tabrikledi.

Spikerlar Samarqand forumi ishiga muvaffaqiyat tilar ekan, hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilayotganiga e'tibor qaratdi. Sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilma-

o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylangan.

Global muammo bo'lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlarini darajasida harakat qilayotgan bo'lishiga qaramay, bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim. Shu bois, Prezidentimiz 2023-yil 20-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Tashabbus global iqlim o'zgarishlarining Markaziy Osiyo bilan bog'liq tahdidlari oldini olish uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda barcha

ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish" rezolyutsiyasi qabul qilinganini alohida qayd etish lozim. Bosh Assambleya bunday maqomni birinchi bo'lib Orolbo'yi mintaqasiga taqdim etdi.

Natijada keyingi yillar davomida Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar o'rmonzor tashkil etildi. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari barpo etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash ancha yaxshilandi.

Folker Tyurk "Ehtimol, hech bir joyda Orol dengizidagidek ekologik buzilish kuzatilmagan. O'tgan yilgi O'zbekistonga safarimda bunga o'zim guvoh bo'lganman", deb ta'kidledi. BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari ta'bi bilan aytganda, bu kabi inqiroz faqatgina atrof-muhit va inson huquqlari uchun falokat emas, iqtisodiyotimiz uchun ham halokatdir. Markaziy Osiyoda faqat o'tgan yilning o'zida iqlim bilan bog'liq ofatlar 3 milliard dollar zarar keltirdi.

Shuningdek, global muammoga aylanib borayotgan avtomobillar harakati va tirbandlik avj olayotgani ham havo ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Avtotransport vositalari atmosfera havosini azot oksidi bilan 45,7 foiz, uglevodorodlar bilan 42 foiz zararlantiradi. Yer yuzidagi jami bir yilda havoga chiqarib tashlanadigan 100 million tonnaga yaqin is gazining 75,5 million tonnasini yoki 78 foizi



avtotransport vositalari hissasiga to'g'ri keladi. Shu bois, bu global xavflar jarayonida inson huquqlarini himoya qilishning barqaror kelajagini belgilab olish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifalaridan biridir.

Ekstremal ob-havo hodisalari allaqachon yashash, ishlash va o'qish uchun xavfsiz joylarni izlayotgan, ko'pincha o'z uylaridan uzoqda bo'lgan millionlab odamlarning migratsiya qilishi va ko'chishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun hayotni o'zgartiruvchi bunday muammolarga javob berish barcha odamlarning huquqlari va ehtiyojlarini hurmat qilish yo'lida juda muhimdir. Yaqin kelajakda Markaziy Osiyo va YXHT hududi inson huquqlari himoyachilarining mehnati hurmat qilinadigan va rag'batlantiriladigan, atrof-muhitga oid xavotirlar eshitiladigan namunaviy mintaqaga aylinishi mumkin.

va barcha bosqichlardagi sa'y-harakatlarni muvofiqdoshirgan holda ish tutish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu xalqaro forum Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va o'zgarayotgan iqlim sharoitida har bir insonning huquqlarini himoya qilish uchun ko'maklashadigan samarador strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqishda turli soha mutaxassislari uchun qulay maydon vazifasini o'taydi.

Forum bugun — 14-iyunda ham o'z ishini davom ettiradi. Unda atrof-muhit muammolarini hal etish va inson huquqlarini himoya qilish borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish masalalari muhokama qilinadi. Global iqlim o'zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga ta'siri imkon qadar chuqurroq tahlillar negizida ko'rib chiqiladi. O'zgaruvchan iqlim sharoitida inson huquqlarini samarali himoya qilish borasida mavjud xalqaro va mintaqaviy hujjatlar hamda vositalar tahlil etiladi.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari, ayniqsa, Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda jiddiy sezilmoqda. Shunday murakkab sharoitda Markaziy Osiyo iqlim

hamkorlarning manfaatlariga birdek mos keladi. Bu taklifning negizida mavjud ekologik muammolarga faqat mintaqaviy darajada yondashish emas, balki ayni tahdidlarning o'ziga xos jihatlariga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish maqsadi ham mujassamdir.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi tashabbusi bilan 2021-yilda Bosh Assambleyaning "Orolbo'yi mintaqasini

**Global muammo bo'lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlarini darajasida harakat qilayotgan bo'lishiga qaramay, bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim. Shu bois, Prezidentimiz 2023-yil 20-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.**

Xalqaro ekspertlar fikri

## IQLIM O'ZGARISHINI YUMSHATISH HAMDA YANGI SHAROITLARGA MOSLASHISH JAMOAVIY YONDASHUVNI TALAB QILADI

Xorijlik ekspertlar "Ekologik tahdidlar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash" mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi haqida

13-iyun kuni "Ekologik tahdidlar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash" mavzusida inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi bo'lib o'tdi.

Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi O'zbekiston inson huquqlari masalalari bo'yicha xalqaro muloqotning muhim markazi sifatidagi maqomini tasdiqladi. Forum mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish sohasida yangi strategiya

va yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qildi. Ihtirokchilar, shuningdek, samarali hamkorlikni davom ettirishga va kelajakda yanada adolatli hamda insonparvar g'oyalarni ilgari surishga yordam beradigan tashabbuslarni amalga oshirishga umid bildirdilar.



Sabina Mahl, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori:

— Avvalo, tashkilotchilarga ekologik muammolar va inson huquqlari bilan bog'liq muhim masalalarni muhokama qilish imkoniyati uchun o'z minnatdorligimni bildiraman.

Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, havo va suvning ifloslanishi butun dunyoda inson huquqlariga jiddiy tahdid solmoqda.

Ushbu ekologik muammolar bevosita hayot, sog'liqni saqlash, toza suv va oziq-ovqatdan foydalanish, munosib turmush darajasiga ega bo'lish huquqiga ta'sir qiladi. Biz bugun ayrim mamlakatlarda kuzatilayotgan suv toshqinlari va qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar aholini o'z xonadonlarini tark etishga majbur qilayotganini, ularning yashash va turmush tarzini izdan chiqarayotganini ko'ryapmiz.

Bizning kelajagimiz ushbu dolzarb muammolarga barqaror yechimlarni qanchalik muvaffaqiyatli topa olishimizga bog'liq. Bu iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va yangi sharoitlarga moslashish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Ushbu maqsadlarga erishishda xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. BMT mamlakatlarini barqaror rivojlantirish va inson huquqlarini himoya qilish yo'lida qo'llab-quvvatlashga tayyor. O'zbekistonda bu borada ijobiy o'zgarishlar qo'lga kiritilayotganini ko'ryapmiz. Mamlakatda ekologik vaziyatni yaxshilash va barqaror amaliyotni joriy etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Biz bu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaymiz va umumiy maqsadlarga erishish yo'lida hamkorlikni davom ettirishga tayyormiz.

Ekologik muammolar bizdan qat'iy va birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Inson huquqlarini himoya qilish va atrof-muhit muhofazasi yonma-yon yurishini va bir-birining ajralmas qismi ekanini unutmasligimiz zarur.

Antti Karttunen, YXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori, elchi:



— Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi, uning ekologik muammolarini hal etish, inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirishdan mamnunman.

Forumda ushbu masalalar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga, jumladan, xotin-qizlar, bolalar va keksalarga qanday ta'sir ko'rsatishini muhokama qildik. Ekologik muammolar ijtimoiy tengsizlikni qanday kuchaytirayotgani va barqaror rivojlanishga o'sqinlik qilayotganiga alohida e'tibor qaratildi. Atruf-muhit va inson huquqlarini himoya qilish kompleks yondashuvni talab etadigan o'zaro bog'liq vazifalar ekanini anglab yetish muhimdir.

Men moderator sifatida ishtirok etgan 3-sessiyada o'zgaruvchan iqlim sharoitida inson huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan mavjud xalqaro va mintaqaviy hujjatlar atroflicha ko'rib chiqildi. Muhokamalarni chog'ida xalqaro va mintaqaviy hujjatlarida mustahkamlangan standartlarga ham to'xtalib o'tildi.

Sessiya yakunida iqlim bo'yicha global tashabbuslar doirasida mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator tavsiyalar qabul qilindi.

Ushbu sessiya, shuningdek, iqlim bo'yicha tashabbuslarni samarali amalga oshirishda biznes va fuqarolik jamiyatining asosiy rolini muhokama qilishga bag'ishlandi.

Samarqanddagi forum mamlakatlar bunday muammolarga umumiy yechim topish uchun birlashishga tayyor ekanini ko'rsatdi. Maqsadlarimizga erishish uchun tajriba, bilim va resurslarni almashishda davom etishimiz zarur.

Xulosa o'rinda shuni aytishni istardimki, Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi ekologik muammolarni muhokama qilish va hal etishda muhim maydonga aylandi. Biz har bir insonning huquqlari himoyalangan va avlodlar uchun sayyoramiz asrab-ayaylanadigan kelajakni ta'minlash uchun birgalikda ishlashimiz.

Sunjid Dugar, Mo'g'uliston Inson huquqlari bo'yicha Milliy komissiyasi bosh vakili, yuridik fanlar doktori:



— O'zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagiga barqaror yechim topish barchamiz uchun ustuvor vazifadir. Forumda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va aholining eng zaif qatamlari huquqlari himoyasi bo'yicha aniq qadamlar qo'yilishi muhokama qilindi. Mo'g'ulistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va tabiiy resurslarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan loyihalar ustida faol ishlashaymiz. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishga yordam beradi.

Ekologik muammolarini hal etishda xalqaro hamkorlik muhimligini ham ta'kidlamochim. Atruf-muhit muammolariga qarshi samarali kurashish uchun bilim va ilg'or tajribalar almashishimiz kerak. Samarqand forumi qo'shma tashabbuslarni muhokama qilish va mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi o'zaro fikr va tajriba almashish maydoniga aylandi. Biz o'zgaruvchan iqlim sharoitida inson huquqlari himoya qilinishini ta'minlash va umumiy ekologik muammolarga barqaror yechim topish uchun birgalikda ishlashni davom ettirishimiz kerak.

"Dunyo" AA

2024-yil 14-iyun, 117-son



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

## Hududlar hayoti



Tashvishsiz bosh, mehnatsiz osh yo'q. Xalqona bu ibora zamirida sabr-bardosh, halol mehnat, hamjihatlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlariga da'vat mujassam. Kimdir tirikchilik, bedorlik qayg'usi bilan yonsa, boshqa birov totuv hayot orzumi. Bularning barchasi mahalla atalmish qo'rg'onning kundalik hayotidan lavha. Kishilar birda quvonch, birda mahzunlik bilan mahallaga yuzlanadi, mahalladoshlariga suyanadi.



toza ichimlik suv qudug'i qazilib, foydalanishga topshirildi.

"Mahalla yetiligi" har bir oilaning hayoti, faoliyati bilan yaqindan tanishib, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga bosh-qosh bo'lyapti. Saxovatli tadbirkorlar va aholi ko'magida ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan 2 ta oilaga yangi uy-joy qurib berildi.

fuqaroga zarur uskunalar olish uchun subsidiya ajratildi.

Bu yerda kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha mikroloiyahalar manzilli dasturi yaratildi. Ushbu yo'nalishda umumiy qiymati 130 million so'm bo'lgan 2 ta loyiha amalga oshirilib, 10 dan ortiq yangi ish o'mi yaratildi.



Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Keyingi yillarda bu tuzilmaga e'tibor yanada oshdi, huquq va vakolati kengaydi. Mahalla joylardagi muammolardan xabardor, hal qiluvchi institut sifatida shakllanmoqda. O'z navbatida, aholining bu tuzilmaga ishonchi ham oshdi. Endi mahalla faqat ma'lumotoma beruvchi emas, balki ulug' maqsad va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab, amaliy ko'maklashuvchi maskan sifatida namoyon bo'lmoqda.

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani "Oqbo'ya" mahalla fuqarolar yig'inida ko'rgan-bilganlarimiz, hamjihatlik, mehnatsevarlik, odamiylik borasidagi ishlar hayratu havasimizni oshirdi.

## Oqbo'yraning yangi manzarasi

Bu maskan Oltiariqdan Marg'ilonga eltuvchi Qashqar yo'li yoqasida joylashgan. Qishloqning "Oqbo'ya" deb atalishining o'ziga xos tarixi bor. Oltiariq farzandi Eminjon Qulmatovning "Oltiariq o'tmishda va hozirda" kitobida qayd qilinishicha, bundan 300 yillar muqaddam atrofi qamishzor bo'lgan bu xilvat go'shida bir kishi bo'yiradon chayla yasab, istiqomat qila boshlagan. Hovuz qazib, uni Fayzioboddan keladigan buloq suviga to'ldirib, yo'lovchilarga suv berib turgan. Odamlar bu yerdan o'tayotganida "Oq bo'yrali chaylaga keldik", deyishni odat qilgan. Keyinchalik bu so'z qisqartirilib, "Oqbo'ya" atamasiga aylanib ketgan.

Toponimlarda "Oqbo'ya" etimologiyasi buvra, bug'ra, bura so'zlariga bog'lanadi. Geografik termin sifatida yonbosh, yonbag'ir, qing'iq, chekka, degan ma'nosi borligiga urg'u qaratiladi. Haqiqatan, Oqbo'ya o'sha davrlarda Oltiariq-ur Marg'ilondan chekkaroda joylashgan inobatga olinsa, chekka qishloq, deyish mumkin.

Oqbo'ya qishlog'ining vujudga kelishi esa Moyko'buva ziyoratgohi yaqinida hozir ham mavjud bo'lgan buloq, shu manzildan uncha uzoq bo'lmagan Malikako'l atrofiga to'g'ri keladi. Buloqlardan muttasil suv chiqib turishi qadimgi ko'chmanchi ajdodlarning bu manzilda qo'nim topishi, o'troqlashib qolishiga sabab bo'lgan. Hozirgacha ularni Beg'o'pi, Qashqarilar, Kitkonto'pi, Naymanto'pi, deyishadi. Vaqt o'tib,

MAHALLA BURUNGIDEK  
MA'LUMOT BERUVCHI MASKAN EMAS

ko'rsatish tarmoqlari, shinam uy-joylar aholi farovonligi, to'kinligining timsoli. Mahalla ramzi bo'lgan Moyko'buva, Devonabuv singari qadim maskanlar qayta ta'mirdan chiqarilib, yangi binolar qurildi, yo'llar asfaltlanib, tom ma'nodagi ziyoratgohga aylandi. "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahorgi mavsumida 4 mingdan ortiq manzarali va mevali daraxt ko'chati ekildi.

Bugungi mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatini avvalgi tuzilmaniki bilan qiyoslab bo'lmaydi. Aholining tom ma'nodagi suyanchig'i, ko'makchisi bo'lgan mahallaning o'zi yordamga muhtoj edi. Bir-ikki odam kirib kelsa, o'tirg'izgani joy topmay xijolat bo'lardik. Eski, siniq stol-stullarni, sharoitimizni ko'rganlar dardi, maqsadini aytishni ham unutib, ortiga qaytar edi. Bugun hammasi o'zgardi: ish sharoitimiz yaxshilandi, vakolatimiz kengaydi. Odamlarni tinglab, masalalarni hamjihatlikda bartaraf etish choralarini ko'ryapmiz. Asosiy maqsadimiz — odamlarning bugundan rozi bo'lib yashashiga ko'maklashish, ertangi kunga ishonchini oshirish. Shu kunga qadar 3,5 kilometr tabiiy gaz quvuri ustunlari yangi beton tayanchga almashirildi. Toza ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 1 kilometr suv tarmog'i tortildi, 2 ta quduq qazildi, — deydi MFY raisi Doniyorbek Toshmurov. — Oqbo'yraliklar tomorqadan unumli foydalanadi. Shu bois, ish tajribasini ommalashtirishda suvdan qiyналadi. Katta Farg'ona kanalidan 3 kilometrlik quvur tortib, suv olib kelish tufayli bu masala ham o'z yechimini topdi. Mazkur ishlar uchun davlat byudjetidan 4,8 milliard so'm mablag' sarflandi.

Raisning aytishicha, mahalladagi bu muammo kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. Avvallari ham ko'plab idoralarga murojaat qilingan. Lekin ijobiy yechim topilmagan. Chunki mahalla fuqarolar yig'ining vakolat va imkoniyati bugungidek keng emasdi. Endi ish tizimi ham o'zgardi. Quyidan ko'tarilgan har bir masala yuqori tashkilotlarda ijobiy yechim topmoqda.

Mahalla ko'chalarining tunda ham charog'on bo'lishida "Tashabbusli budjet" loyihasi qo'l kelmoqda. O'tgan yili bitta past kuchlanishli transformator hamda 40 ta beton simyog'och o'rnatildi. Bu yilgi mavsumda 2 ta hududda

— Xursandligimizni so'z bilan ifodalab berolmayman, — deydi oqbo'yralik Murodjon Isoqov. — Oilaviy sharoitimizni hisobga olib, shinam uy-joy qurib berishdi. Buning uchun yordam so'rab bormagan joyim qolmagan edi. Murojaatimni qabul qilganlar kelib, ahvolimizni ko'rib ketdi, lekin amaliy yordam darak bo'lmadi. "Mahalla yetiligi" tashabbusi bilan uy-joy qurib berilishini aytishganida, to'g'risi, ishonmadim. Hammasi haqiqat ekan. Qisqa



muddatda hashar qilib, uy qurib bergan barcha mahalladoshlarimdan minnatdorman. Xayr-saxovat qamrovi kundan kunga kengaymoqda. Homyiylar ko'magida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilyapti, 4 negiron maxsus aravacha bilan ta'minlandi.

## Farovonlik daromadga bog'liq

Tadbirkorlikning beshigi — mahalla. Bu bejiz emas. Soha rivojlanishida tashabbus, qo'llab-quvvatlov, imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalanish ham muhim. Mahallalarga hokim yordamchisi shtat birligi ajratilgan bugun

samarasini ko'rsatmoqda. Endi chekka va olis qishloqlarda ham zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Xomashyoni qayta ishlash orqali eksport bo'lib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tashabbusi quloch yozyapti.

"Oqbo'ya" mahalla fuqarolar yig'inida bu borada e'tiborga molik misollar, tajriba, tashabbuslar ko'p. Shu kunga qadar tadbirkorlik va oilaviy biznesni yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan 80 fuqaroga 150 million so'mdan ortiq kredit

ajratildi. Buninghisobiga chorvachilik, issiqxonona, parrandachilik, tikuvchilik, bog'dorchilik faoliyati kengaydi. Qo'llab-quvvatlanganlarning 12 nafari "Ayollar dasturi"ga kiritilgan xotin-qizlardir. 44 fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi, 89 nafarining bandligi ta'minlandi. — Xatlov natijalariga ko'ra, 120 oqbo'yralik ishsiz ekani aniqlangan. Ularning har biri bilan alohida-alohida ishlayapmiz, — deydi hokim yordamchisi Murodjon Ummatov. — Ishsizlarga 18 gektar yer ajratilib, 10-15 sotixdan bo'lib berildi va yangi dehqon xo'jaliklari tashkil etildi. "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida kashka, sabzi yetishtirilyapti. Bu yilning ikki mavsumida har bir oilaga qo'shimcha 100-110 million so'mdan daromad olish imkonini beriyapti. Ijtimoiy dasturlarga kiritilgan 10

## Sog'lom oila — sog'lom jamiyat asosi

Xalqimizda "Qushning ham ini buzilmasin" degan hikmat bor. Uning zamirida oilani asrab-avaylash, tinch-totuv yashash, mehr-muhabbat rishtalarini mustahkamlash kabi tushunchalar mujassam. Shu bois, oilalarni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni oilaga tayyorlash muhim ishlardan. Xonadondagi sog'lom muhit ikki yoshning izmasiga tushadi. Quy o'zida er-xotin ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy jihatdan faol bo'lsa, o'sha yerda tinchlik, farovonlik ta'minlanadi.

Xotin-qizlar muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolganlarga psixologik, ijtimoiy-huquqiy, moddiy yordam berish borasida davlatning tegishli organlari bilan hamkorlik qilib kelyapmiz, — deydi xotin-qizlar faoli Umidaxon Xalilova. — Asosiy, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ajralishlarning oldini olish, fertil yoshdagi ayollar salomatligini mustahkamlash, maktab va maktabgacha tarbiya tashkilotlarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish. O'tgan yillarda oilaviy notinchlik bilan bog'liq salbiy holat qayd qilinmadi. Ammo bu xotirjamlikka asos bo'lmaydi. O'rganish natijasida mahalladagi xotin-qizlarning 110 nafari ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtojligi bois, "Ayollar dasturi"ga kiritildi. Hozirgacha ularning 9 nafariga moddiy yordam, 3 nafariga subsidiya asosida pishirig' pechi, tikuv mashinalari olib berildi, 8 nafarining bandligi ta'minlandi. Bir bemor ayol xonadonda hashar uyushtirilib, yashash sharoiti yaxshilandi. Yaqinda oilaviy mojaroga barham berish maqsadida "mahalla yetiligi" hamjihat bo'lib xonadonga bordik. Tomonlarni murosaga keltirish oson bo'lgani yo'q. Hamjihatlikda hikmat ko'p, deganlari rost ekan. Subhat asosida oilaviy tortishuvga sabab bo'lgan masalalarga ham yechim topildi. Kuyov haq to'lanadigan jamoat ishiga joylashtirildi, uy bekasi subsidiya asosida tikuv mashinasi bilan ta'minlandi. Hayot tarzidagi bu o'zgarish bir oilani parokandalikdan, murg'ak bolalarni yetimlikdan asrab qoldi.

## Har ishda faol yoshlar

Oqbo'yra yashovchilarning aksariyati yoshlar. Ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko'maklashish, huquqbuzarlikka moyillar bilan ishlashda "mahalla yetiligi" hamkor, hamfikir. Bunda har bir yosh qiziqishi, fe'l-atvoriga qarab yashil, sariq, qizil toifalarga ajratilib, ular bilan alohida-alohida ish olib borilyapti. Shu kunga qadar qizil toifaga kiritilgan, tarbiyasi og'ir yoshlarning 23 nafariga huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy yordam berildi. Mahalla yoshlari "Besh tashabbus" doirasida o'tkazilayotgan sport musobaqalarining mahalla, tuman, viloyat bosqichlarida faol ishtirok etib kelyapti.

— Tinchlik, ijtimoiy barqarorlik huquq-tartibot organlari xodimlari va aholi hamjihatligiga bog'liq, — deydi profilaktika inspektori Sardorbek Yusupov. — Bu yo'lida kattayu kichik bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz. Natijalar quvonarli, o'tgan yili mahallamizda birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

## Soliq — xazina tayanchi

Aholining ijtimoiy himoyasidan tortib, yurtning obodligi ham soliqdan keladigan tushumlarga bevosita bog'liq. Tadbirkorlarning soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq muammolarini o'rganish va joyida hal qilish, tashabbuskorlar faoliyatini qonuniylashtirishga ko'maklashish orqali biznesni rivojlantirishda mahalladagi soliq inspektorining o'mi katta. U hudud imkoniyatidan kelib chiqib, soliq bazasini kengaytirish, o'sish nuqtalarini aniqlab, yangi tadbirkorlik subyektlari ochish, qo'shimcha ish o'rnlari yaratishga e'tibor qaratib kelyapti.

Mahallada 12 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritib keladi. Shu kunga qadar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ishlab kelayotgan bir fuqaro faoliyatini kengaytirib, tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tdi. Endi u aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar toifasiga kiradi.

Bekzod Rahimov yakka tartibdagi tadbirkor sifatida kompyuter xizmati bilan shug'ullanadi. "Soliqchi — tadbirkor" tamoyili doirasida uning o'rni-joyi savdo uchun qulayligi, faoliyatini kengaytirish, qo'shimcha xizmat turlari bilan bog'liq imkoniyatlar tushuntirilgach, dizaynerlik, suratga olish xizmatlarini yo'lga qo'ydi. Bugungacha kelib yakka tartibdagi tadbirkor maqomidan yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tdi, 3 ta yangi ish o'mi ochdi.

Tadbirkorlarga "Soliqchi — tadbirkor" ko'makchi" tamoyili asosida hisobot yuritish, "E-jara" dasturidan foydalanishda amaliy yordam berib kelyapmiz, — deydi soliq inspektori Ahad Yusupov. — Shuningdek, faoliyatini to'xtatgan tadbirkorlar orasida soliq imtiyozlari va yengilliklar haqida targ'ibot o'tkazaypimiz.

## Mehr-saxovat manzili

Qiyналgan damlarda suyanchiq bo'lish, mehr-muruvvat ko'rsatish xalqimizga xos qadriyatlar. Shu bois, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini aniqlash, davlatimiz tomonidan kafolatlangan yordamning manzili va tizimli asosda yetib borishini ta'minlash maqsadida mahallalarda ijtimoiy xodim lavozimi joriy etildi. Asosiy maqsad — og'ir ahvolga tushgan va tushib qolish xavfi yuqori shaxslar hamda oilalarni aniqlash, ehtiyojlariga qarab ularga amaliy yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash. Qisqa muddatda bu yo'nalishda amaliy ishlarga qo'l urilib, ko'plab masalalarga yechim topilmogda.

Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtojlarni o'rganish jarayonida o'zgalar parvarishiga muhtoj, yakka-yolg'iz yashovchi 2 keksa, vasiylik va homiylikka olinishi kerak bo'lgan 6 bola borligi aniqlandi, — deydi ijtimoiy xodim Mehribinso Toppiyeva. — Hozir keksa yoshdagi fuqaroga o'zgalar parvarishiga muhtoj, yakka-yolg'iz keksa sifatida hujjatlar tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, ota-ona qaramog'isiz qolgan 4 bolani yaqin qarindoshlariga vasiylik va homiylikka berish ustida ish olib borilmoqda.

Oqbo'yra o'zida o'z vaqtida faol yoshlar hayot ishtiroki bilan yashayotganlar ko'p. Bu xislatlar "mahalla yetiligi" hamkorligida rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan bilan e'tiborni tortadi. Chunki hamjihatlik bor joyda fayz-u baraka bo'ladi.

## Xirmonga baraka

SURXONDARYODA G'ALLA REJASI  
ORTIG'I BILAN BAJARILMOQDA

Bu yil Surxon vohasida 89 ming 325 gektarda g'alla yetishtirildi. Hosilni o'rib-yig'ib olishga 265 ta kombayn jalb qilindi.

Joriy yil hosili uchun Muzrabotda 10 ming 700, Bandixonda 4688 va Temiz tumanida 2900 gektarga mahalliy iqlim va tuproq sharoitiga mos, ertapishar va serhosil navli urug'lar ekildi. Ekinlar zamonaviy texnologiyalar asosida parvarish qilinishi tufayli kutilgan hosil yetishtirildi. Hosilni qisqa fursatlarda yig'ishtirib olish ishlari oqilona tashkil etilishi natijasida 10-iyun holatiga ko'ra, reja mamlakatimizda birinchi bo'lib ortig'i bilan bajarildi. O'rib olingan maydonlarda o'racha hosildorlik 80-90 sentnemi tashkil etdi. Ilg'or fermer xo'jaliklari bir gektar g'alla maydonidan 100 sentnergacha hosil olishga erishdi.

Ko'tarilgan xirmonga tumanlarda faoliyat yuritayotgan klasterlar va fermer xo'jaliklari birdek hissa qo'shdi.

— Termiz tumanining g'alla rejasi mamlakatimizda birinchilardan bo'lib ortig'i bilan bajarildi, — deydi ilg'or fermerlardan biri Ikrom Jo'raboyev. — Hali Surxon dalalarida hosil ko'p, o'rim uyushqoqlik bilan davom etiyapti. Hosilni tezda sarajomlab olish harakatidamiz.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Hamkorlik

# O'zbekiston — Koreya Respublikasi: STRATEGIK SHERIKLIKDA OLIY TA'LIM VA ILMIY ALOQALAR USTUVORLIGI



**Gulchehra RIXSIYEVA,**  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor

**Koreya va O'zbekiston aloqalari azaldan mavjudligi, bu ikki mamlakat hududiy jihatdan uzoq joylashganiga qaramay, xalqlarimizning urf-odatlari va an'analari o'xshashligi ko'p e'tirof etib kelinadi. Bu tarixiy munosabatlarni Afrosiyob muzeyida saqlanayotgan qadimiy devoriy suratlardan ham bilsa bo'ladi. Unda VII asr o'rtalarida Samarqand hukmdori Koreya elchisini qabul qilgani tasvirlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi salobatli bir rasmda esa Samarqandning gavjum bozorida koreyalik savdogarning surati tasvirlangan.**

ham nihoyatda qizg'in, qiziqarli tadbirlarga boy bo'ldi. Talaba yoshlarning o'zbek va koreys madaniyati birligini ko'rsatishga qaratilgan san'at va madaniyat yo'nalishidagi tadbirlari, turli konsert dasturlari, "Koreys tili notiqlik san'ati" tanlovi yoshlarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu haftalik davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Inha xalqaro tadqiqotlar markazi hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida "Yevrosiyo va koreyashunoslik" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib

Bular koreyashunoslik yo'nalishida qilinayotgan ishlarning ayrim namunalari, xolos.

**TARJIMA ELLARNI, DILLARNI BOG'LAYDI**

Xalqlar va mamlakatlarni birlashtirishda, ularning tafakkur mahsulini bo'lmish adabiy asarlar bilan tanishtirishda tarjima ishlarining o'rni beqiyos. Universitetimizda tarjimonlar va tarjimahunoslar tayyorlash ustuvor

Universitetning alohida rejasiga ko'ra, yaqinda Xankuk chet tillar universiteti bilan hamkorlikda sinxron tarjima markazi tashkil etildi. Bu markaz kelgusida mamlakatlar orasida aloqalarni rivojlantirishda tarjimon va tarjimahunoslarni, ayniqsa, bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan sinxron tarjimonlarga bo'lgan ehtiyojni qoplashga asos bo'ladi.

Bugungi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Janubiy Koreyaning 30 ga yaqin universiteti bilan

davlatlardan. O'zbek va koreys tillari oltoy tillar oilasiga kiradi va shu sababli ham talabalar bu ikki tili oson o'rganadi. Janubiy Koreyaning qator universitetlarida, xususan, Xankuk chet tillar universiteti, Tegu universiteti, Busan chet tillar universitetida o'zbek tili o'qitilmoqda. Bir qator darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan.

Janubiy Koreya hukumati tomonidan hamkor mamlakatlar orasida tanlangan tillarni o'qitish bo'yicha alohida CFELE loyihasi uchun maxsus davlat granti ajratilgan. Shu asosda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha darajalarga bo'lingan holda o'zbek tili darsliklari yaratilib, chop etilgani biz uchun nihoyatda quvonarli. Xankuk chet tillar universiteti professorlari Li Ji In va Aziza Mashrabbekova hamkorligida shu darsliklarning B2 darajadagi kitobida hammuallif sifatida ishtirok etganidan juda mamnunman. Ona tilimizning Janubiy Koreyada o'qitilishidan faxrlanaman. Koreys shogirdlarimdan biri professor Li Ji In ushbu universitetning Markaziy Osiyo kafedrasini boshqarayotgani, yana biri Yon Sangxeum doktoranturani universitetimizda tugatib, koreys va o'zbek tilini qiyosiy tadqiq etib, ajoyib dissertatsiyani himoya qilgani meni g'ururlantiradi.

O'tgan yili Janubiy Koreyaga xizmat safarimda davomida Xankuk chet tillar universitetida o'zbek tilini o'rganayotgan talabalarga ma'ruzalar o'qir ekanman, ularning til bilishga ishtiyoqi kuchli ekaniga guvoh bo'ldim. Shogirdlarimning ona tilimizni koreyalik yoshlarga chuqur mas'uliyat va mehr bilan o'qitayotgani, o'zbek tilida ko'plab tadbirlar o'tkazayotgani, kitoblar yozilayotganini ko'rib, tanlagan kasbimning naqadar ulug'ligidan quvondim.

Bugungi kunda har ikki hamkor davlatning qo'shma loyihalari yoki dasturlari bo'lmagan soha yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning O'zbekistonga davlat tashrifi o'zaro hamkorlikning yanada kengayishi, qo'shma tashabbuslarning amaliyotga kirishi uchun yanada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu tashrif, o'z navbatida, mazkur aloqalar rivojiga hissa qo'shadigan kadrlarni tayyorlashga muvofiq o'liy ta'lim muassasalari oldiga yangi tashabbuslar bilan ishlash vazifasini qo'yadi. O'zaro kelishuvlar va loyihalari ikki mamlakatning ta'lim yo'nalishidagi aloqalar rivoji, qolaversa, hamkorlikning kelgusi istiqbol uchun yanada keng yo'l ochadi.



o'tdi. Anjuman o'zbek va koreys olimlari hamda tadqiqotchilarining turli yo'nalishdagi ilmiy ma'ruzalari muhokamasi bilan kelgusidagi hamkorlikni rivojlantirishga asos vazifasini ham o'taydi, deyish mumkin.

Haftalik davomida koreyashunoslik fakulteti professor-o'qituvchilari tomonidan zamonaviy talabalar asosida tayyorlangan mediamahsulotlar (darslik, o'quv qo'llanma) taqdimoti bo'lib o'tdi. Koreys filologiyasi kafedrasini mudiri Umida Saydizimova boshchiligidagi Aziza Hidoyatova, Dilrabo Dadaboyeva tomonidan "Uch podshohlik va Silla davri adabiyoti" darsligi, Bamo Mirsharipova tomonidan esa "Koreys frazeologizmlarining milliy madaniy xususiyatlari" mediadarsliklari taqdimot ishtirokchilari tomonidan qizg'in kutib olindi.

yo'nalishlardan biri. Ta'lim jarayoni, o'tkazilayotgan ilmiy anjumanlar, badiiy kechalar, kitoblar taqdimotlari, mashhur tarjimonlarning mahorat darslari bu yo'nalishdagi ishlar samaradorligiga zamin yaratmoqda.

Koreys adabiyoti namunalari o'zbek tiliga, o'zbek tili adabiyoti namunalari esa koreys tiliga tarjima qilish bo'yicha izlanayotgan yoshlarimiz bor. Abdulla Qahhor, Zulfiya, Muhammad Yusuf asarlari koreys tiliga tarjima qilinib chop etilgani, shuningdek, koreys tilidan mumtoz va zamonaviy davr nasri hamda nazmning saylanmalari, koreys etaklari o'zbek tiliga tarjima qilingani buning isbotidir.

o'quv va ilmiy yo'nalishlarda hamkorlik qilmoqda.

Koreya Respublikasidan O'zbekistonga kelib faoliyat yuritayotgan diplomatlar, elchilarning universitet talabalari uchun maxsus ma'ruzalarini tashkil etish an'angasi aylanib. Kyonsan-Pukto viloyati gubernatori o'rinsobasi, siyosiy fanlar doktori Li Dal Hi xonim, Kemyong universiteti prezidenti Sin Ilxi janoblari bugungi kunda TDSHning faxriy professorlari hisoblanadi.

**JANUBIY KOREYADA O'ZBEK TILIGA E'TIBOR**

Koreya Respublikasi til o'qitish bo'yicha hamkorlikni ikki tomonlama rivojlantirayotgan

**Yangicha yondashuvlar**

**Yo'ning ikki tarafiga ekilgan gujum daraxtlari "Keling, marhamat", deya Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi tajriba maydonchasiga chorlab turgandek tasavvur uyg'otadi. So'lim joydagi mazkur markaz 2018-yili tashkil etilgan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-maydagi qaroriga asosan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.**

— Markazimizga Orol dengizi tubida sho'rlangan yerda ekotizim yaratish va barqaror turmush darajasini ta'minlash, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sho'rlangan hududdagi muammolar yechimiga xizmat qiladigan innovatsiyalar ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklatilgan, — deydi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi direktori Baxitjan Habibullayev. — Shuningdek, markaz sinovlar o'tkazish uchun eksperimental maydonlar yaratish, innovatsion texnologiya va yondashuvlarni, jumladan, o'rmon melioratsiyasi, sahroni daraxtzorga aylantirish ishlari bilan ham shug'ullanadi. Bioenergetika, ekinlar diversifikatsiyasi, kompleks ekinlar yetishtirish, chorvachilik, yaylovlarini rivojlantirish, qurg'oqchilikni boshqarish va yumshatish, Orol dengizi qurishining oqibatlarini bartaraf etish va ko'l havzasini ekologik sog'lomlashtirish sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish — asosiy maqsadimiz.

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha markaz qator xalqaro va mahalliy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sheriklik aloqalari o'rnatgan. Jumladan 50 dan ortiq xorijiy va mahalliy tashkilot bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida kelishuv va memorandumlarni imzolangan.

— Markazimiz Xitoy Fanlar akademiyasining Sinszyan ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda Orol dengizini ekologik jihatdan barqaror boshqarish bo'yicha loyihani amalga oshirdi, — deydi markazning melioratsiya va suv xo'jaligi bo'limi mudiri, loyiha koordinatori Ismoil Asanov. — Loyiha doirasida 2022-2023-yillarda Nukus tumani Samanbay uchastkasida 2 gektar bo'lmish Orolbo'yi

Mo'ynoq uchastkasida 1,7 gektar maydonda noan'anaviy, tuzga chidamli 23 turdagi qishloq xo'jaligi ekinini va galofit o'simliklari tajribasini o'z ichiga olgan parvarishlandi. Shu bilan birga, tomchilatib sug'orish tizimi, kichik meteostansiya o'rnatildi.

Ushbu loyiha doirasida Samanbay uchastkasida paxtaning 11 navi sinovdan o'tkazilib, ijobiy natija olindi. Jumladan, Xitoyning "Osiyo-66" paxta navini tomchilatib sug'orish tizimi yordamida yetishtirish bo'yicha tajriba o'tkazildi. Natijada yuqori sifatli paxta tolasini hosildorligi 50 sentnerni tashkil qildi. Suv sarfi 2,1 barobar kamaytirilib, hosildorlik 2,3-marta oshdi.

Yana bir yangilik. 2023-yili Orolbo'yi hududida suv taqisligiga moslashish, dengizning qurigan tubida cho'l o'simliklaridan iborat o'rmon barpo etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazish uchun markazga 127 ming AQSH dollari qiymatidagi laboratoriya uskunalari yetkazib berildi.

Sinszyan ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda Orolbo'yida keng qamrovli tadbirlarni bajarish nazarda tutilgan. Qiymati 500 ming AQSH dollari bo'lgan Orol dengizi havzasining ekologik tiklanishida fotoelektr quvoni energiyasidan foydalanish tajribasini o'rnatish bo'yicha loyiha amalga oshirilmogda, — deydi Ismoil Asanov. — Uni O'zbekiston Fanlar akademiyasi va boshqa tegishli xorijiy va mahalliy tashkilotlar bilan birgalikda 2023-2025-yillarda amalga oshirish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, "Samanbay" tajriba maydoni hududida qiymati 134 ming dollarlik uskunalarni, jumladan, quyosh panellari va shamol generatorlari o'rnatildi.

Sinszyan ekologiya va geografiya instituti

## SUV SARFI KAMAYIB, HOSILDORLIK ORTMOQDA

bilan hamkorlikda dorivor o'simlik — sistanxe yetishtirilmoqda. Yaqinda Mo'ynoqdagi ilmiy ishlab chiqarish maydonchasida xitoylik olimlar bilan birga sistanxe urug'i tajriba tariqasida ekildi.

Markazda UNICEF jam'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda 2021-yildan buyon amalga oshirib kelinayotgan ImkonLab dasturi doirasida yoshlar orasida ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy tadbirkorlik uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar ham mavjud. O'tgan yili Qoraqalpog'istonning Kegeyli, Chimboy va Qorao'zak tumanlaridagi yoshlarning jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarini tahlil qilish, muammoning asl sabablarini



## Orolbo'yidagi tadqiqotlar ahamiyati qanday?



tushunish va samarali innovatsion yechim ishlab chiqishga yordam berilgan. Natijada 5 ta jamoaning har biriga muayyan muammo

yechimini ishlab chiqishi uchun ming AQSH dollaridan mablag' ajratilgan. — Loyihamiz "SATREPS — 2020"

O'zbekiston — Yaponiya hamkorligidagi qo'shma xalqaro ilmiy loyihalar tanloviga g'olib bo'lgan edi. Orolbo'yi galofit dehqonchilik tizimi uchun markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyasidan foydalanib, qurg'oqchilik, yuqori harorat va sho'rga chidamli, oqsilga boy bahorgi bug'doy navlari yaratish bo'yicha innovatsion amaliy loyiha ustida ishlayapmiz, — deydi markazning ekinlar diversifikatsiyasi laboratoriyasi mudiri, loyiha koordinatori Paraxat Toreshov. — Ayni paytda tajribasini va ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmogda. Loyihamiz natijasida qurg'oqchilik, issiqlik va sho'rga chidamli, oqsilga boy bahorgi 2 ta bug'doy navi yaratiladi.

Orolbo'yi innovatsion markazidagi loyihalar bilan tanishar ekanmiz, haqiqatan, hudud iqlim sharoitiga mos keladigan ishlanmalarni ko'rdik. Masalan, Qoraqalpog'iston qishloq

xo'jaligi va agrotexnologiyasi instituti rektori Berdiy Jollibekov amalga oshirayotgan loyiha qiymati 2,8 milliard so'mni tashkil etadi. U Orolbo'yi hududida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida chorva uchun galofit o'simliklardan yem-xashak ishlab chiqarishning iqlimga chidamli innovatsion yondashuvlari va texnologiyalariga muvofiq amaliy loyihadir. Ushbu loyiha ijrosi natijasida mahalliy bozor uchun chorvaga yem-xashak ekinlari yetishtirish innovatsion tizimini rivojlantirishga erishiladi.

— Qoraqalpog'iston tumanlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihani Abu-Dabi rivojlanish fondi (BAA) moliyalashtirmogda. Uning doirasida Afrika tarig'ining 6 namunasi, jo'xorining 23, moshning 4, kungaboqning 3 navi Orolbo'yi hududi uchun moslashtirilmogda, — deydi Baxitjan Habibullayev. — Shuningdek, Mo'ynoq tumanida "Orolbo'yi bog'im" loyihasi doirasida manzarali daraxtlar bog'ini yaratish bo'yicha ishlar qilinmoqda. 2023-yili loyiha doirasida "Sibirskoye zodoroye" kompaniyasi homiyligida 500 tup manzarali daraxt va 4 ming tup saksovul ko'chati, "ERIELE Oilfield Services Middle East DMCC" kompaniyasi homiyligida 500 tup manzarali daraxt va 1 ming 500 tup saksovul ko'chati, "Nestle" kompaniyasi

homiyligida 10 ming tup, Fransiyaning ASIE uyushmasi homiyligida ming tup saksovul ko'chati ekilishi natijasida loyiha maydoni 20 gektarga kengaytirildi.

Markazdagi muhim yangiliklardan biri shuki, qiymati 12,4 milliard so'mlik o'simliklar urug'i genbanki bilan ta'minlangan laboratoriya, biznes-akselerator o'quv markazi va texnopark imorati joriy yilda qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi.

Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi bilan tanishuvimiz davomida juda ko'p ishlarni va tajribalar guvohi bo'ldik. Bularning barchasi Orolbo'yida ekotizim va barqaror turmush darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Minajatdin QUTLIMURATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Tirik tarix

MILLIY-QAHRAMONLARIMIZNING ruhiy quvvati

vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otib, ulug'vor maqsadlar sari chorlaydi

"Ipak yo'li durdonasi" XIV Toshkent xalqaro kinofestivalida "Bahodir Yalangto'sh" tarixiy filmining birinchi epizodini suratga olish jarayoni namoyish etilgan. O'shanda film eng zamonaviy, badiiy va texnologik saaviyada suratga olish imkonini beradigan yangi panoramali paviyonda ishlanayotgani haqidagi xabarlar yurtdoshlarimiz qiziqishini oshirgani esimda. Ilgari yirik blokbastr va jangovar filmlar xromakey yordamida suratga olingan bo'lsa, bugun Stage craft texnologiyasidan foydalanish orqali jarayon global miqyosda o'zgarishi, texnologiya bitta paviyoning o'zida yuqori sifatda tasvirga olish imkonini berishi haqida mutaxassislar intervyu bergandi.



Premyeradan so'ng bu shov-shuvli xabarlar o'z tasdig'ini topdimi? Xalqimizning buyuk farzandlaridan biri, davlat va jamoat arbobi, sarkarda Bahodir Yalangto'sh (Olchin) hayoti va faoliyati aks ettirilgan mazkur filmni suratga olish jarayoni qanday kechdi? O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli rejissor Jahongir AHMEDOV bilan subhatimiz shu va boshqa mavzular haqida bo'ldi.

Ko'pchilikka noma'lum qahramonlar men uchun hamisha qiziq bo'lgan. Izlanishlar qancha mashaqqatli bo'lsa, topgan ma'lumotlaringiz shuncha qadr topadi. Hali o'zimga ham, yurtdoshlarimizga ham unchalik tanish bo'lmagan qahramonlarni badiiy epizodlarga ko'chirib, xalqimizga, xususan, yoshlarga ta'sirli qilib yetkazish kinoijodkor sifatida menga juda katta zavq va shijoat beradi.

Bugun butun dunyodan kelayotgan sayyohlarning barchasi, avvalo, ko'hna va

— Avvalo, "Bahodir Yalangto'sh" filmi premyerasi bilan chin dildan tabriklaymiz. Namoyish qilinganidan so'ng aksariyat tomoshabin o'zbek kinosi yana bir yaxshi asar bilan boyigani, tarixiy film suratga olish yo'nalishida yangi mezon paydo bo'lganini aytmog'ga. Bu e'tirof zamiridagi mashaqqat va izlanish haqida so'zlab bersangiz.



afsonaviy Samarqandni, Registon ansamblini ko'rishni xohlaydi. Biroq bu obidalarni kim qurganini ayrimlar haligacha bilmagan. Shu bilan birga, Bahodir Yalangto'sh o'zbek

— Tabrik uchun tashakkur. Premyeradan so'ng aytilayotgan fikrlar, e'tiroflar har qanday ijodkor uchun alohida faxr, katta sharaf. Bir jihati ta'kidlamog'chim: "Bahodir Yalangto'sh" filmi uchun kimdadir minnatdorlik bildirish lozim topilsa, avvalo, Prezidentimizga tashakkur aytish zarur. Chunki kino sohasining bugungi yutuqlari zamirida davlatimiz rahbari e'tibori, ijodkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlarning alohida o'rni bor.

Albatta, har bir muvaffaqiyat ortida tinimsiz mehnat, ijod mashaqqati, chuqur izlanishlar ham yotadi. Ijodiy guruhimiz bilan qariyb uch yil davom etgan suratga olish ishlari, umuman, jarayonlar mobaynida bizga katta ishonch bilan qarab turgan xalqimiz e'tirofiga munosib, nihoyatda katta ko'lam va yuksak saaviyadagi tarixiy filmni yaratish oson yumush emasligiga yana bir karra amin bo'ldik. Bu bor ijodiy salohiyatimizni ishga solish bilan birga butun boshli sanoatning yangi qiralaridan foydalanishni talab etuvchi keng miqyosdagi jarayon.

Tarixni shunchaki jonlantirib bo'lmaydi. Dekoratsiya, liboslar, rekvizit va yana boshqa o'nlab omillar jam bo'lgandagina biz xohlagan tarixiy muhit paydo bo'ladi. Sanoat deb mana shuni nazarda tutaymiz. Suratga olish jarayonida qimmatbaho dekoratsiyalar o'rni sahnaning orqa tomoniga kerakli atmosferani to'liq yetkazib bera oladigan yirik LED panellar o'rnatildi. Natijada virtual olamning yuqori sifatli tasviri ekranda aks ettirildi va operator kamerasiga hech qanday qiyinchiliksiz bog'lana oldi. Obyektlarning fondagi holatini kamera joylashuviga qarab o'zgartirish esa sifatlil film suratga olish imkonini beradi.

— Hamisha ilgari murojaat qilinmagan qahramonlar haqida film ishlashga harakat qilasiz. "Islomxo'ja" va "Ilhaq" tarixiy kartinalari qahramoni ham avval yaratilmagan. Bahodir Yalangto'sh haqidagi ba'zi ma'lumotlarni ayrim yurtdoshlarimiz endi eshitib turibdi. Hatto uning Samarqanddagi Tillakori va Sherdor madrasalarini bunyod etganini bilimaydiganlar bor. Bahodir Yalangto'sh obrazini yaratishda qaysi manbalarga tayandingiz?



davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega siyosatchilardan bo'lgan. Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror" asarida yozilishicha, amirning asl ismi Xatoy Bahodir bo'lgan. Ayrim

manbalarda uning ismi goh Nizomiddin, goh Abdulkarim tarzida keltiriladi. Rivoyatlarga ko'ra, dushmanga qarshi bir jangda hech qanday sovutsiz, qalqonsiz, ko'ksini ochib maydonga tushgani uchun unga Yalangto'sh laqabi berilgan. Davlat boshqaruvi qo'lga kiritishga hissa qo'shgan, sadoqatli va namunali xizmatlarini e'tiborga olgan Imomqulixon 1612-yili Bahodir Yalangto'shni Samarqand viloyati hokimi etib tayinlaydi. Bir necha tanaffus bilan u qirg' yil Samarqandni boshqargan.

Bahodir Yalangto'sh haqidagi to'liq ma'lumotni akademik Azamat Ziyo boshchiligidagi Tarix instituti olimlaridan, samarqandlik mutaxassis Erkin Musulmonovdan oldik. Filmining ekran yuzini ko'rishida aynan mana shu olimlarning mehnati va yordami juda katta bo'ldi. Birgina noto'g'ri ma'lumot muayyan tarixiy davr qiyofasini, ahmiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu bois, har bir ma'lumot va topilmani jiddiy muhokama qilishga to'g'ri keldi.

— Filmini ko'rayotgan chog'imiz tomoshabinlar juda ko'p dialogni chin dildan olqishlab turdi. Shu o'rinda Malika Gerl shoh Antoniga aytgan mana bu so'zlarni keltirib o'tmoqchiman: "Men sening saroyingda yashagan yillarim aslo qadr topmadim, biroq Samarqandda kechgan asirlik chog'imda sochlarimning bir talasi

— Prezidentimizning kinosarorlar tashrifi barchamizga katta g'urur bag'ishladi. Sohaga, kerak bo'lsa, suratga olinayotgan har bir filimga, ijodkorlariga shaxsan davlat rahbari e'tibor qaratib, qo'llab-quvvatlab tursa, g'ururlanmay yuborishimiz shart. Yaratilajak tarixiy filmlarning ham texnik, ham badiiy saaviyasini mana shu yo'l bilan yuksaltirish mumkin.

— "Tirik tarix" — o'zbek davlatchiligining uch ming yillik buyuk tarixi, shonli va qayg'uli

bu boradagi hamkorlik haqida ham aytib o'tsangiz.

— Film ssenariydan boshlanadi va unga ko'p narsa bog'liq. Ochiq'li, eng og'riqli jihati ham aynan kinodramaturgal yetishmasligidir. Ayniqsa, ular orasidan yosh avlodning yetishib chiqishida muammo ko'p. Shuning uchun ham ayrim rejissyorlar o'zi ssenariy yozishga majbur bo'ladi. Ko'pchilik "Ana bor-ku, yozuvchilarga murojaat qiling", deydi. Lekin kinodramaturgiya faqat yozuvchilikdan iborat emasligini tushunmaydi. Bu — alohida kasb, alohida iste'dod. G'afur G'ulom "Shum bola" qissasini kinossenariyga aylantirishga ko'p vaqt urinib ko'rgan, "Bu yozuvchining ishi emas ekan", deb qaytarib bergan. Natijada ulug' rejissyor, ustozimiz Shuhrat Abbosov "Shum bola"ni kinossenariyga aylantirgan. Men bu gapni ssenariyni faqat rejissyorlar yozsin, deyshi uchun aytmayapman. Kim bu ish bilan shug'ullanishni istasa, panja ortidan qaramasin, jiddiy yondashib, bor zakovati va iste'dodini bag'ishlab ishlasin, demog'chiman. Hasan Toshxo'jayev bilan ilk hamkorligimiz "Ilhaq" filmida bo'ldi. Mana "Bahodir Yalangto'sh"ni ham birga, hammualliflikda yozdik. Shuzr ishonch bilan uni zamonaviy o'zbek kinosining zabardast dramaturgiyada deb ayta olaman.

— Joriy yil 16-mayda davlatimiz rahbari qator kinoijodkorlar bilan uchrashuv chog'ida kino bizi yangi bosqichga olib chiqishini, biz faqat fidoyi mehnatimiz bilan o'zimizni dunyoga tanitishimiz mumkinligi haqida aytgan edi. Bu so'zlar nafaqat kinoijodkorlar, balki yurtimizdagi barcha ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklagani aniq. Siz rejissyor sifatida yangi bosqichda qanday o'zgarish va yangilanishlar ro'y berishini istaysiz?

— "Yaqin-yaqingacha harbiy sohalarga qiziqqan bolalarimizni Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek bobolari qolib, "Suvorovchilar maktabi"da o'qitib keldik. Mana qanday film qilish kerak. Bugun endi "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari farzandlarimiz uchun eshiklarini ochib turibdi. Turli zamonaviy ilmlarni, murakkab matematik amallarni o'zlashtirayotgan ming-minglab bolalarimiz ko'p ta'kidlaydi. Biz, kinoijodkorlar ana shu katta tadorik va qutlug' ishga munosib javob bera olishimiz kerak.

— "Tirik tarix" — o'zbek davlatchiligining uch ming yillik buyuk tarixi, shonli va qayg'uli

kechmishi, ulug' siymolari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muhtasham kinoloyiha. Uni ro'yobga oshirish jarayonidagi dastlabki sa'y-harakatlar, mazkur loyiha doirasidagi orzularingiz va rejalaringiz ham muhtariylar uchun qiziq...

— Ijodiy guruhimiz suratga olgan tarixiy mavzudagi uchinchi filmimiz ekran yuzini ko'rdi. Tajriba ortirdik, malaka oshirdik, ko'nikma va bilimimizni yangiladik. Shunga yarasha rejalaringiz ham bor. Ijodiy guruhimiz ko'pdan buyon ishlab yurgan mavzular ancha pishib qoldi. Katta loyihadan chiqdik, bir oz tin olib, navbatdagi ijodiy ishlarga qo'l uramiz.

— "Tirik tarix" noma'lum muhtasham loyihaning yaratilishi ham uch ming yillik tariximiz qahramonlari, ularning shiori, maqsadlari, xulosalari orqali bugungi avlodga vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, jasoratli qalblarda mayoq yaratishdir! Yangi texnologiyalar o'z yo'lga, avvalo, yaratilajak 52 filmining ruhiyatini bala baland bo'lishi kerak. Shundaygina Uchinchi Uyg'onishga ko'rilayotgan tarafdunlik qanchalar ulug' va shonli ekanini yosh qalblarga singdira olamiz.

— Bahodir Yalangto'shning siz aytgan so'zlari mangu sado yangilig' bizni ham hushyor qildi. Premyera tugagandan keyin ham tomoshabinlar zalni tark etmay, sahnaga chiqishingizni kutib turdi. Ko'plab yurtdoshlarimiz "Ana shunday qahramonimizni bizga eslatgan, tanitgan rejissor Jahongir Ahmedovga ming rahmat!" deya e'tirof eganini muxlislarimiz minnatdorligi sifatida aytib o'tishni joiz bildik. Mazmunli subhatimiz uchun tashakkur!

davlatimiz rahbari 16-maydagi uchrashuvda ta'kidlagan edi. Har bir davr insoni o'z yutuqlari bilan birga kamchilik va muammolardan ham xoli bo'lmaydi, albatta. Sizingcha, global dunyodagi vatanparvar obrazi boshqa davrning fidoyilaridan qanday farqlanadi?

— Ayniqsa, bugunning uyg'oq va mustaqil fikrga ega odamlari har lahzada hushyor bo'lishi zarur. Axborot xuruji avj olgan ayni pallada xabar va ma'lumotlar, yosh qalblarni adashtirish niyatida tarqatilyotgan turli targ'ibot materiallari bir nafasda dunyoning uchetidan bu chetiga eshik qoqmay kirib kelmoqda. Demak, bir zumga bo'lsa-da, beparvo bo'lish, g'afllatda qolishga haqqimiz yo'q. Davlatimiz rahbari hamisha xavotir bilan ta'kidlayotgan mulohazani men hamisha yoshlarimizga takrorlashdan charchamayman. Ana shu tinimsiz ongimizni, qalbibizni band qilayotgan axborot makonida milliy kontent hududi mustahkam bo'lishi kerak va shart!

Barcha davlat o'z milliy qadriyat va an'analari, nuqtayi nazari aks etgan xabarlar, asarlar va kinofilmlarni katta mas'uliyat bilan targ'ib qilmoqda. Shu bois, Islomxo'ja, Bahodir Yalangto'sh kabi qahramonlarimizni badiiy filmlar orqali uyg'otishimiz, ularning g'oyalari yosh avlod qalbiga singdirishimiz juda muhim. O'zimga ijodkor sifatida har gal milliy qahramonlarimiz haqidagi filmlarni suratga tushirish jarayonida juda katta ruhiy quvvat olanam. Muayyan muddat ko'tarinki kayfiyatda, g'ayratu shijoat bilan yashayman. Shogirdlarim, farzandlarim, umuman, atrofimdagi barcha yaqin va tanishlarimga mehrim, munosabatim o'zgaradi.

"Bahodir Yalangto'sh" filmi suratga olish chog'ida meni qiynab kelayotgan, xalqimiz, milliatimizni ichidan yemirayotgan, tashqi dushmanlardan ham xavfli — do'st qiyofasidagi ichki dushmanlar borasidagi tuyg'ularim, xulosalarim, mulohazalarimni singdirishga harakat qildim. Premyera chog'ida Bahodir Yalangto'shning "Mening xalqimdan aslo ginam yo'q, Vatanim uchun jonim fidol!" degan so'zlarini eshitganimda ko'zimga yosh keldi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, qaysi kasb va hunarni egallagan bo'lishimizdan qat'i nazar, har birimizning ulug' maqsadimiz yangi O'zbekistonimiz uchun kurashish, yonib yashash va mehnat qilishdir. Kelgusida ijodiy jamoamiz bilan yurtdomochi bo'lgan barcha filmlarimizning asl mohiyati ana shu maqsad bilan chambarchas bog'liq.

Shu o'rinda menga quvonch bag'ishlayotgan bir holatni aytib o'tmoqchiman. Xabaringiz bor, ayni kunlarda poytaxtimiz va viloyatlardagi kinoteatrlarda "Bahodir Yalangto'sh" badiiy filmi namoyish etilmoqda. Deyarli har kuni menga ota-onalar, o'qituvchilar qo'ng'iroq qilib, "Farzandlarimizga faxr va iftixor bilan tavsiya etsak bo'ladigan ajoyib film suratga olibsiz, rahmat", deyapti. Bunday e'tirofni eshitganimda yanada shijoat bilan yangidan yangi filmlar suratga olishni rejalashtira boshlayman.

"Tirik tarix" noma'lum muhtasham loyihaning yaratilishi ham uch ming yillik tariximiz qahramonlari, ularning shiori, maqsadlari, xulosalari orqali bugungi avlodga vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, jasoratli qalblarda mayoq yaratishdir! Yangi texnologiyalar o'z yo'lga, avvalo, yaratilajak 52 filmining ruhiyatini bala baland bo'lishi kerak. Shundaygina Uchinchi Uyg'onishga ko'rilayotgan tarafdunlik qanchalar ulug' va shonli ekanini yosh qalblarga singdira olamiz.

— Bahodir Yalangto'shning siz aytgan so'zlari mangu sado yangilig' bizni ham hushyor qildi. Premyera tugagandan keyin ham tomoshabinlar zalni tark etmay, sahnaga chiqishingizni kutib turdi. Ko'plab yurtdoshlarimiz "Ana shunday qahramonimizni bizga eslatgan, tanitgan rejissor Jahongir Ahmedovga ming rahmat!" deya e'tirof eganini muxlislarimiz minnatdorligi sifatida aytib o'tishni joiz bildik. Mazmunli subhatimiz uchun tashakkur!

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA subhatlashdi.